

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT
(II-haftha 8,10-12 may)**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonи(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga 8,10-12 may kunlari **178 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonlari va jamg‘arma manziliga hafta davomida **9(5%)** nafar imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli og‘zaki va yozma murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **uch nafar bemorlar davolanish sifatidan, o‘z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi hamda hamshiralar muomilasidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaat** qildi.

Ushbu murojaat yuzasidan shifoxona mas’ullariga telefon orqali murojaatchining ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemor e’tirozi o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaat o‘z vaqtida bartaraf qilindi.**

Toshkent shahar Shayxontohur tumanida yashovchi fuqaro **Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanish davrida **o‘z hisobidan dori vositalari sotib olganligi** yuzasidan **yozma murojaat** qilib Jamg‘arma manziliga keldi. Fuqaroning yozma murojaati tegishli bo‘limlar tomonidan o‘rganish jarayonida.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga **Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanida** yashovchi fuqaro imtiyozga ega farzandini davolatish uchun moddiy yordam so‘rab murojaat qilib keldi. Murojaat qilgan fuqaroga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagи PQ-5199-sonli qarorida belgilangan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga **imtiyozli yo‘llanma orqali barcha bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bepul bo‘lishi ya’ni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi tushuntirildi.**

QQR, Xorazm, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg‘armaning ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiylar qilindi.**

Xududiy bo‘linma boshliqlari va bosh mutaxassislarga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga imtiyozli yo‘llanma asosida shifoxonaga davolanishga yotgunga qadar Sog‘liqni saqlash xodimlari mas’ul bo‘lishligi, imtiyozli yo‘llanma bilan davolanishda ko‘rsatilgan tibbiy yordam hajmi va sifati yuzasidan e’tirozlarni Jamg‘arma manzillariga murojaat qilish yuzasidan joy(KTMP, OP, OShP)larga tarqatish uchun **“Eslatma”** shakllantirilib elektron shakli yuborildi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati**